

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/07.06.2024 Qx.13.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

KDIRBAEVA GULAN UTEBAEVNA

**QISHLOQ XO‘JALIGI IXTISOSLASHTIRUVINI TAKOMILLASHTIRISH
NATIJASIDA YERDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)**

06.01.10-«Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi»

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

UDK: 631.1+631.11+631.151.3

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori Dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Kdirboeva Gulan Utebaevna

Qishloq xo‘jaligi ixtisoslashtiruvini takomillashtirish natijasida yerdan foydalanish samaradorligini oshirish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida).....3

Кдирбаева Гулан Утебаевна

Повышение эффективности землепользования за счет совершенствования сельскохозяйственной специализации (на примере Республики Каракалпакстан).....21

Kdirbayeva Gulan Utebaevna

Improving the efficiency of land use by improving agricultural specialization (on the example of the Republic of Karakalpakstan).....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/07.06.2024 Qx.13.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

KDIRBAEVA GULAN UTEBAEVNA

**QISHLOQ XO'JALIGI IXTISOSLASHTIRUVINI TAKOMILLASHTIRISH
NATIJASIDA YERDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH
(Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)**

06.01.10-«Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi»

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.4.PhD/Qx1283 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz.) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Reimov Nietbay Baynazarovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ruzmetov Maqsud Ismoilovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Narbaev Sharofitdin Kengeshovich
Iqtisod fanlari falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/07.06.2024.QX.13.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 17.01.2025-yil soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00, faks: (+99871) 260-38-60, e-mail: tuag_info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2024 yil «_____» _____ dagi 1-raqamli reestr bayonnomasi).

Raupova N.B.

Ilmiy darajalar beruvchi bir
martalik Ilmiy kengash raisi, b.f.d.,
professor

Sodiqova G.S.

Ilmiy darajalar beruvchi bir
martalik Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, b.f.n., dotsent

Norqulov U.

Ilmiy darajalar beruvchi bir
martalik Ilmiy Kengash qoshidagi
seminar raisi q.x.f.d., professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda yerlarning degradatsiyasi butun sayyoradagi insonlar va ekotizimlarga ta'sir qilib, iqlim o'zgarishiga hissa qo'shmoqda va shu bilan birga global o'zgarishlarning natijasidir. Hozirgi hisob-kitoblarga ko'ra, XXI asrning boshlariga kelib, yer maydonining taxminan 24% tanazzulga uchragan va bu 1,5 milliarddan ortiq insonning farovonligiga bevosita ta'sir qilgan, ekotizimlar va yer resurslariga bo'lgan yuklama yildan - yilga faqat ortib bormoqda. Antropogen ta'sir tufayli qishloq xo'jaligi yerlari degradatsiyasi 34% (1660 mln ga) ga yetdi¹.

Cho'llanish, yerlarning degradatsiyasi, tuproq eroziyasi va suv tanqisligi ijtimoiy rivojlanishda tanglik va inqirozlarni keltirib chiqarmoqda. Bu borada yer degradatsiyasini xavfni shakllantiruvchi omil sifatida ko'rib chiqish mumkin, ayniqsa yerdan foydalanish imkoniyati asta-sekin kamayib borayotgan holatlarda u oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun va suvni saqlash yoki boshqa hayotiy ekotizim xizmatlariga salbiy ta'sir qilmoqda.

Dunyoning qishloq xo'jaligi mazmunan xilma-xil bo'lib, mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotini oziq-ovqat, oзуqа va texnik ekinlarning hosildorligini va umumiy samaradorligini oshirish yo'li bilan rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Shu ma'noda tuproqni himoyalovchi va resurs tejovchi qishloq xo'jaligi amalda mintaqada ishlab chiqarish tizimlarining barqaror intensivikasiya qilinishi bo'yicha keng ko'lamli vazifani bajarishga qaratilgan ustivor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot olib ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada, Orolbo'yi hududida tarqalgan degradatsiyaga uchragan yerlardan foydalanishda turlicha yondashuvlar va mexanizmlarni ishlab chiqish alohida ilmiy yechimga ega bo'lgan tadqiqotlar asosida sho'rlangan yerlari ekologik holatini baholash va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda yer tuzish, kadastr va yer monitoringini yuritish asosida ma'lumotlarni raqamlashtirish, yer resurslaridan samarali foydalanish, uni boshqarish va nazorat qilish tizimini ishlab chiqish bo'yicha bir qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustivor yo'nalishdan iborat 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini uchinchi yo'nalishi - milliy iqtisodiyotni, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida rivojlantirish bo'yicha belgilangan ustivor vazifalardan iborat. Shuningdek, qishloq xo'jaligida erkin raqobatni ta'minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish, xususan, paxta va g'alla yetishtirishda davlat buyurtmasini bekor qilish orqali ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlik va mahsulot ishlab chiqaruvchilar manfaatdorligi oshirilishi» Shundan kelib chiqib, tuproq unumdorligini oshirish, yer resurslaridan samarali foydalanish va ilg'or agrotexnik tadbirlarni ishlab chiqishda tuproqlar unumdorligini ilmiy asoslangan holda boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ <https://doi.org/10.4060/cb7654ru>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori 2021-yil 24-fevraldagi PQ-5006-son “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora –tadbirlar to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-yanvardagi 22-son “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining V.«Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi va yerdan samarali foydalanish muammolari, ayniqsa Yangicha agrotexnikalar, naslchilik, urug‘liklar va resurslarni samarali ishlatish usullarini o‘rganish, yashil texnologiyalar, organik mahsulotlar va barqaror rivojlanish konsepsiyalarini joriy etish. raqobatbardosh mahsulotlarni yaratish va marketing strategiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini shakllantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari xorijlik olimlardan J.Cheng, C.Ding, Y.Huang, A.T.Ibraheem, J.W.Kim, K.E.Potts, M.S.Reddy E.Shkarupa, P.Perexodov, J.Skot, U. Dinkelberg, U.Denis, V.Bondarenko, D. Shishkina G.Mokrov, D.Ternovskiy, V. Axramovich, R. Yanbix, G.Grishin, O.Tagirov, S.Korotkova, Yu.Tkach hamda respublikamiz olimlaridan S.A.Avezbaev, E.Yu.Safarov, R.A.Turaev, G‘.T.Parpiev, Q.Raxmonov, A.R.Babajonov, O.O‘. Davronov, B.N.Inamov, R.K.Oymatov, B.Yu.Maxsudov, R.N.Sharopov, D.B.Eshnazarov, S.Z.Safaev, M.T.Abdullaeva, X.H.Tashbaeva, S.S.Ibroximov va boshqalar tomonidan olib borilgan. Lekin, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida Orol bo‘yi hududi qishloq xo‘jaligi yerlarini ixtisoslashuvi jarayonida yerlardan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli emas.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti Kengashining 21-may 2018-yildagi №10 sonli qarori bilan tasdiqlangan dastur asosida hamda QXA-7-007-2015 «Janubiy Orol sho‘r tuproq sharoitida g‘o‘za hosildorligi va tuproq unumdorligini oshiruvchi mahalliy mineral agrorudalarni qo‘llash texnologiyalarini ishlab chiqish» (2015-2017 yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Orolbo‘yi hududida qishloq xo‘jaligi ixtisoslashtiruvini takomillashtirish orqali yerdan foydalanish samaradorligini oshirishga oid ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

- Orol bo‘yi mintaqasi yer fondining yillar bo‘yicha o‘zgarishlar dinamikasi aniqlash, hudud yerlarining degradatsiya jarayonlarini asoslash va unga ta’sir

ko'rsatuvchi omillarning ta'sir darajasini, sug'oriladigan turli tip tuproqlarining hozirgi davr sifat holatini baholash;

- Orol bo'yi mintaqasi yerlarida suv tanqisligi sharoitida ekinlar hosilini yetishtirishdan olingan natijalar asosida qishloq xo'jaligi ekinlarining kam suv ta'minotiga moslashgan yangi guruhini tuzish;

- Orol bo'yi hududi ekologik muhitiga mos ravishda chorva uchun yaylov yerlari hududini tashkil etish mexanizmi takomillashtirish;

- Qishloq xo'jaligining suvni kam talab qiladigan ekin turlariga yo'naltirish va ushbu yo'nalishda chorva-dehqon fermer xo'jaliklari hamda agroklasterlarini tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Bo'zatov, Mo'ynoq, Nukus, Taxtako'pir, Xo'jayli, Taxiatosh tumanlaridagi qishloq xo'jaligi yerlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti qishloq xo'jaligi yerlari, suvni kam talab qiladigan ekinlar, ekologik muhitga mos qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi, g'allachilik klasterlari, sholichilik klasterlari, agroklasterlar.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda to'plangan ilmiy ishlarini qiyosiy taqqoslashda O.A.Ragimov, M.A.Mazirov, monografik tadqiqotlar olib borishda R.Campbell, T.Pentz, L.Borthwick, monitoring yuritishda I.P.Farman, hamda xaritalarni elektron raqamlashtirishda Y.T.Chiang, S.Layk, C.A.Knoblock kabilarning usullaridan foydalanilib, olingan ma'lumotlar V.A.Dospexovning "Методика полевого опыта" uslubiy qo'llanmasi bo'yicha va Microsoft Excel dasturi yordamida matematik-statistik tahlil qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Orol bo'yi mintaqasi yer fondining yillar bo'yicha o'zgarishlar dinamikasi aniqlangan, hudud yerlarining degradatsiya jarayonlari asoslangan va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sir darajasi, sug'oriladigan turli tip tuproqlarini hozirgi davr sifat holati baholangan, ular asosida sho'rlanish va gumus bilan ta'minlanish kartogrammalari tuzilgan.

- Orol bo'yi mintaqasi yerlarida suv tanqisligi sharoitida ekinlar hosilini yetishtirishdan olingan natijalar asosida qishloq xo'jaligi ekinlarining kam suv ta'minotiga moslashgan yangi guruhi tuzilgan;

- Orol bo'yi hududi ekologik muhitiga mos ravishda chorva uchun yaylov yerlari hududini tashkil etish mexanizmi takomillashtirilgan

- Qishloq xo'jaligining suvni kam talab qiladigan ekin turlariga yo'naltirish va ushbu yo'nalishda chorva-dehqon fermer xo'jaliklari hamda agroklasterlarini tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Qishloq xo'jaligi ekinlari orasida suvni kam talab qiladigan qishloq xo'jaligi ekinlaridan kunjut, tariq, mosh, loviya, jo'xori, bahorgi bug'doy va beda ekinlari bilan suvni ko'p talab qiladigan paxta va sholi ekinlari bilan iqtisodiy tomonlari, suvga talabchangligi taqqoslab sinab ko'rib, ishlab chiqarishga tavsiya etilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasining sho'r tuproqli, suv taqchilligi sharoitida - paxta, sholi bilan birga suvni kam talab qiladigan ekinlarni ekib yaxshi daromad olish mumkinligi ilmiy jihatdan dalillangan.

Taklif qilinayotgan ekinlarni parvarishlashda oldingi dasturiy ekilayotgan ekinlarga nisbatan 23,0 ming metr kub suv tejallishini ilmiy tadqiqotlardagi ma'lumotlar bilan asoslangan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi yerlarining sho'rlanish, yer tuzish va sifatini baxolash xaritalari 1:10000 masshtabda tuzilgan

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining dala, laboratoriya va kameral usullaridan foydalanilgan holda o'tkazilganligi, tadqiqotlar natijalari umumqabul qilingan uslublar asosida takomillashtirilganligi, nazariy va amaliy natijalar bir-biriga mosligi hamda amaliyotga joriy etilganligi, statistik tahlil qilinganligi, olingan xulosa qonuniyatlari ilmiy asoslanganligi, avvalgi va chet el izlanishlari bilan taqqoslanganligi, tadqiqot natijalari Respublika va Xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama etilganligi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilganligi natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, Orolbo'yi hududi yerlarining qishloq xo'jaligiga ixtisoslashuvi orqali yerlardan samarali foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muammolar va yerlarning meliorativ holati aniqlanganligi, suv tanqisligi sharoitida ekinlar hosilini yetishtirishdan olingan natijalar asosida qishloq xo'jaligi ekinlarining kam suv ta'minotiga moslashgan yangi guruhi tuzilganligi; ushbu yo'nalishda chorva-dehqon fermer xo'jaliklari hamda agroklasterlarini tashkil etish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sug'oriladigan turli darajada sho'rlangan tuproqlarda suvni kam talab qiladigan ekinlarni ekish orqali tuproq unumdorligini saqlash va yaxshilash, suvni tejashga qaratilgan chora-tadbirlar bilan birga Orol bo'yi mintaqasida kelajakda qo'shimcha tashkil etilishi tavsiya qilinayotgan agroklasterlar qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan yerlardan samarali foydalanishda xizmat qiladi

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Orolbo'yi hududi qishloq xo'jaligi ixtisoslashtiruvini takomillashtirish natijasida yerdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Suv yetishmovchiligi sharoitida qishloq xo'jaligida ixtisoslashuvni takomillashtirish masalalari bo'yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. (Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi Vazirligining 2024- yil 16-apreldagi 01/013-1518-sonli ma'lumotnomasi) Natijada, Qoraqalpog'iston Respublikasining sho'r tuproqli, suv taqchilligi sharoitida - paxta, sholi bilan birga suvni kam talab qiladigan ekinlarni ekib yaxshi daromad olish mumkinligi ilmiy jihatdan dalillangan va ulardan samarali foydalanish imkonini bergan.

Suvni kam talab qiladigan ekinlardan - jo'xori, kunjut, tariq, mosh, loviya va beda o'stirish bo'yicha tajribalar Nukus tumanida 21,2 gektarga, Bo'zatov tumanida 99,9 gektarga, Mo'ynoq tumanida 200,4 gektarga, Taxtako'pir tumanida 139,5 gektarga, Tadqiqot o'tkazgan tumanlar bo'yicha jami 461 gektar maydonga joriy etilgan(Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi Vazirligining 2024- yil 16-apreldagi 01/013-1518-sonli ma'lumotnomasi) Natijada suvni kam talab qiladigan ekinlardan - jo'xori, kunjut, tariq, mosh, loviya va beda o'stirishda 62 million 50

ming so‘m daromad olingan, taklif qilinayotgan ekinlarni parvarishlashda oldingi dasturiy ekillayotgan ekinlarga nisbatan 23,0 ming metr kub suv tejalgan.

«Yer tuzish» dasturiy ta‘minoti yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan berilgan guvohnoma: №DGU 202406635. 18.05.2024 y.). Natijada, ushbu dasturiy ta‘minotlar Suv tanqisligi sharoitida qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvini takomillashtirish orqali yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish asosida qishloq xo‘jaligi ekinlarining kam suv ta‘minotiga moslashgan sarf etilayotgan ortiqcha mehnat va mablag‘larni tejash imkonini bergan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligi yerlarining sho‘rlanish, yer tuzish va sifatini baholash xaritalari 1:10000 masshtabda tuzilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligi Vazirligining 2024-yil 16-apreldagi 01/013-1518-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada hudud yerlarining xossalari to‘g‘risida aniq ma‘lumotlar olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Olib borilgan tadqiqot ishlari Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti tomonidan tuzilgan maxsus aprobatiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholangan, hisobotlar har yili institutning ilmiy va uslubiy kengashlarida muhokama qilingan. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy maqola chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda, 1-ta tavsiyanoma nashr etilgan. Dasturiy ta‘minot uchun 1 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi kirish, 4 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda ob‘ekt va predmetlari shakllantirilib, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va tadqiqotning amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbiq etish ro‘yxati keltirilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Orol bo‘yi hududi yerlarining qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashtiruv va uni takomillashtirish orqali samarali foydalanishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobining 1.1-§ qismida «Yer va suvdan natijali foydalanish va uni takomillashtirishning nazariy asoslari» deb nomlangan bo‘lib, unda bugungi bozor iqtisodiyotiga javob beradigan tarmoqlarni rivojlantirish, shuningdek, kelajakda mintaqada ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga erishishni o‘zida

aks ettiradigan yer tuzish hujjatlarini ishlab chiqish va shu asosida qat'iy tarzda yer va sug'orish suvidan foydalanishni bashoratlash va rejalashtirish mintaqadagi mavjud yer, suv va mehnat resurslaridan istiqbolda samarali foydalanishga oid ma'lumotlar yoritilgan. 1.2-§ qismi Qishloq xo'jaligi ixtisoslashtiruvini tartibga solish bo'yicha xorijiy manbaalar tahliliga bag'ishlangan bo'lib Rossiya, Ukraina, Belarussiya, Avstraliya, AQSh, Shvetsariya kabi davlatlar yerlari monitoringini zamonaviy uslublarga asoslangan holda yuritilishi kabi masalalar tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning «**Qoraqalpog'iston Respublikasi Orolbo'yi hududi tuproqlarining paydo bo'lishi va rivojlanish sharoitlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot olib borilgan joyning geografik o'rni, tuproqlarining paydo bo'lishi va rivojlanish sharoitlari, geomorfologiyasi, tuproq hosil qiluvchi jinslari va sizot suvlari, sug'oriladigan hududlarda tarqalgan asosiy tuproqlar tavsifi, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlarida tarqalgan sug'oriladigan tuproqlarning meliorativ holati, Iqlim sharoitlariga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi umumiy yer maydoni 166,6 ming kvadrat kilometrdan iborat bo'lib, u hududning kattaligi jihatdan O'zbekiston Respublikasi hududiy birliklari o'rtasida birinchi o'rinda turadi. Umumiy maydoni 16659095 gektar teng bo'lib, jumladan sug'oriladigan yaylovzorlar, daraxtzorlarni qo'shganda 5265348 gektar yerdan iborat.

Orol dengizi va Orol bo'yi hududi ma'muriy jihatdan O'zbekiston (Qoraqalpog'iston) va Qozog'iston hududida joylashgan. Orol dengizining yarmidan ko'proq qismi O'zbekiston hududiga qarashli. Orolbo'yi Amudaryo va Sirdaryoning quyi qismi hamda Orol dengizi atrofidagi hududlarni, shuningdek, dengiz sathining chekinishi natijasida uning shimoli-sharqiy va janubiy qismida vujudga kelgan Orol cho'lini o'z ichiga oladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida jami sug'oriladigan yerlar 460439,0 gektar bo'lib, shundan 420958,4 gektari (91,4 %) turli darajada sho'rlangan.

Tuproqlarning tuz rejimini belgilovchi sizot suvlarining sathi, minerallashtirishlik va kimyoviy tarkibi, tuproq eritmasining sho'rlanganlik darajasi, sug'orish rejimi, sho'r yuvish va sug'orish suvlari sifati, tuproq gruntlarning xossa-xususiyatlari, gidromeliorativ tizimlar holati, joyning tabiiy va sun'iy zovurlashganligi, litologik-geomorfologik va iqlim sharoitlari va boshqalar) omillari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ulardan biri o'zgarishi bir vaqtning o'zida boshqalarning sezilarli o'zgarishiga olib keladi. Jumladan, kollektor-zovur tarmoqlarining ishdan chiqishi, sizot suvlarining yer yuzasiga ko'tarilishi va mineralizatsiya darajasining ortishi, o'z navbatida, tuproqda tuz to'planishi va qayta sho'rlanish jarayonlarining faollashuviga ta'sir qiladi.

Tuproqning sho'rlanishi uning sho'rlanish darajasi, tuzlar ximizmi, tuzli gorizontning joylashish chuqurligi va yer osti suvining chuqurligi bilan farqlanadi. Sho'rlanmagan tuproqlar Qoraqalpog'iston Respublikasi sug'oriladigan yerlarining 39480,9 gektarini, ya'ni 8,6 %ni tashkil etadi. Kuchsiz sho'rlangan tuproqlar sug'oriladigan yerlarning 142585,0 gektarini tashkil etadi, bu 31,0 % ga teng. Kuchsiz sho'rlangan tuproqlar deyarli barcha hududlarda tarqalgan. O'rtacha sho'rlangan tuproqlar 139499,1 gektarga teng. Bu respublika sug'oriladigan

yerlarining 30,3 % ini tashkil etadi. Sho‘rlanish tipi, asosan, xlorid-sulfatli va sulfatli. O‘rtacha sho‘rlangan tuproqlar respublikaning barcha tumanlarida tarqalgan. Kuchli sho‘rlangan tuproqlar esa 69385,7 gektar yerga teng. Bu respublika sug‘oriladigan yerlarining 15,0 % ini tashkil etadi. Sho‘rlanish tipi, asosan, xlorid-sulfatli va sulfatli. Kuchli sho‘rlangan tuproqlar respublikaning barcha tumanlarida tarqalgan. Juda kuchli sho‘rlangan tuproqlar 69488,6 gektar yerga teng. Bu respublika sug‘oriladigan yerlarining 15,1 % ini tashkil etadi. Sho‘rlanish tipi, asosan, xlorid-sulfatli va sulfatli. Juda kuchli sho‘rlangan tuproqlar ham respublikaning barcha hududlarida keng tarqalgan.

Nukus tumani. Tumanda jami sug‘oriladigan yerlar 27263,0 gektar bo‘lib, shundan 25065,6 gektari (91,9 %) turli darajada sho‘rlangan. Sho‘rlanmagan tuproqlar 2197,4 gektarni, ya‘ni tuman sug‘oriladigan yerlarining 8,1 %ni tashkil etadi (1-jadval).

Kuchsiz sho‘rlangan tuproqlar maydoni 10951,5 gektarni tashkil etadi, bu tuman sug‘oriladigan yerlarining 40,2 % ga teng. Tumanda kuchsiz sho‘rlangan tuproqlarning sho‘rlanish tipi xlorid-sulfatli va sulfatli. O‘rtacha sho‘rlangan tuproqlar maydoni 6894,9 gektarga teng, bu tuman sug‘oriladigan yerlarining 25,3 % ni tashkil etadi. Sho‘rlanish tipi, asosan, xlorid-sulfatli va sulfatli. Kuchli sho‘rlangan tuproqlar 2962,2 gektarga teng.

Bu tuman sug‘oriladigan yerlarining 10,8 % ni tashkil etadi. Sho‘rlanish tipi, asosan, xlorid-sulfatli va sulfatli. Kuchli sho‘rlangan tuproqlar ko‘proq “Kerder”, “Shortanboy”, “Boyantomir”, “Qizil uy”, “Darsan” va “Nukus” hududlarida tarqalgan. Juda kuchli sho‘rlangan tuproqlar maydoni 4257,0 gektarga teng, bu tuman sug‘oriladigan yerlarining 15,6 % ni tashkil etadi. Sho‘rlanish tipi, asosan, xlorid-sulfatli va sulfatli. Juda kuchli sho‘rlangan tuproqlar “Kerder”, “Shortanboy”, “Boyantomir”, “Qizil uy”, “Darsan”, “Qo‘tanko‘l” va “Aqterek” hududlarida ko‘proq tarqalgan.

Xo‘jayli tumani. Tumanda jami sug‘oriladigan yerlar 26271,0 gektar bo‘lib, shundan 23845,8 gektari (90,8 %) turli darajada sho‘rlangan. Sho‘rlanmagan tuproqlar 2425,3 gektarni, ya‘ni tuman sug‘oriladigan yerlarining 9,2 % ni tashkil etadi (1-jadval).

Kuchsiz sho‘rlangan tuproqlar 11578,62 gektarni tashkil etadi, bu tuman sug‘oriladigan yerlarining 44,1 %ga teng. Tumanda kuchsiz sho‘rlangan tuproqlarning sho‘rlanish tipi xlorid-sulfatli va sulfatli. Kuchsiz sho‘rlangan tuproqlar deyarli barcha hududlarda tarqalgan. O‘rtacha sho‘rlangan tuproqlar maydoni 6867,17 gektarga teng, bu tuman sug‘oriladigan yerlarining 26,1 %ni tashkil etadi. Sho‘rlanish tipi, asosan, xlorid-sulfatli va sulfatli. Kuchli sho‘rlangan tuproqlar maydoni 2650,9 gektarga teng. Bu tuman sug‘oriladigan yerlarining 10,1 % ni tashkil etadi. Sho‘rlanish tipi, asosan, xlorid-sulfatli va sulfatli. Kuchli sho‘rlangan tuproqlar “Xo‘jayli massivi”, “Taxiatosh parranda xo‘jaligi” va “O‘rmon xo‘jaliklari”dan tashqari barcha hududlarda tarqalgan. Juda kuchli sho‘rlangan tuproqlar maydoni 2749,1 gektarga teng, bu tuman sug‘oriladigan yerlarining 10,5 %ni tashkil etadi. Sho‘rlanish tipi, asosan, xlorid-sulfatli va sulfatli. Juda kuchli sho‘rlangan tuproqlar “Taxiatosh parranda” xo‘jaligidan tashqari hamma hududlarda tarqalgan.

Mo‘ynoq tumani. Ushbu tumanning sug‘oriladigan tuproqlarining meliorativ

holati nafaqat Qoraqalpog'iston Respublikasi, balki O'zbekistonning boshqa viloyat tuproqlaridan meliorativ og'irligi bilan farq qiladi. Jumladan, tumanda jami sug'oriladigan yerlar 25073,0 gektar bo'lib, ular to'liq tarzda (100 %) turli darajada sho'rlangan. Shuningdek, sho'rlanish darajalari orasida kuchsiz sho'rlangan tuproqlar mavjud emas (1-jadval). O'rtacha sho'rlangan tuproqlar maydoni 8112,1 gektarga teng, bu 32,4 %ni tashkil etadi. Sho'rlanish tipi, asosan, xlorid-sulfatli va sulfatli. Kuchli sho'rlangan tuproqlar 11996,8 gektarga teng, bu tuman sug'oriladigan yerlarining 47,8 % ni tashkil etadi. Sho'rlanish tipi, asosan, xlorid-sulfatli va sulfatli. Juda kuchli sho'rlangan tuproqlar maydoni 4964,1 gektarga teng, bu 19,8 % ni tashkil etadi. Sho'rlanish tipi, asosan, xlorid-sulfatli va sulfatli. Sho'rlanish darajalariga ko'ra aytish mumkinki, tuman sug'oriladigan tuproqlarining meliorativ holatini yaxshilash uchun nisbatan suv va iqtisodiy sarf yuqori bo'ladi, shuning uchun ularning yechimini topish uchun ilmiy yondashuv talab etiladi.

Textako'pir tumani. Tumanda jami sug'oriladigan yerlar 32767,0 gektar bo'lib, shundan 32443,6 gektari (99,0 %) turli darajada sho'rlangan. Sho'rlanmagan tuproqlar 323,4 gektarni, ya'ni 1 %ni tashkil etadi (1-jadval). Kuchsiz sho'rlangan tuproqlar maydoni 5713,2 gektarni tashkil etadi, bu tuman sug'oriladigan yerlarining 17,4 % ga teng. Tumanda kuchsiz sho'rlangan tuproqlarning sho'rlanish tipi xlorid-sulfatli va sulfatli. O'rtacha sho'rlangan tuproqlar maydoni 10372,4 gektarga teng, bu tuman sug'oriladigan yerlarining 31,7 %ni tashkil etadi. Sho'rlanish tipi, asosan, xlorid-sulfatli va sulfatli. Kuchli sho'rlangan tuproqlar 15271,3 gektarga teng. Bu tuman sug'oriladigan yerlarining 46,6 % ni tashkil etadi. Juda kuchli sho'rlangan tuproqlar maydoni 1086,7 gektarga teng, bu tuman sug'oriladigan yerlarining 3,3 %ni tashkil etadi. Sho'rlanish tipi, asosan, xlorid-sulfatli va sulfatli. Ushbu tumanda ham sug'oriladigan tuproqlarning deyarli barchasi to'liq sho'rlangan, bundan ko'rinadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasida meliorativ tadbirlar alohida yondashuv va nazorat asosida olib borilishi lozim.

Dissertatsiyaning «**Suv tanqisligi sharoitida qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvini takomillashtirish orqali yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish**» deb nomlangan ushunchi bobida Orolbo'yi hududining qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi orqali yerlardan samarali foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muammolar, Qoraqalpog'iston Respublikasi suv tanqisligi sharoitida ekinlar hosilini yetishtirishdan olingan natijalar keltirilgan.


Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi sharoitida 2022-yil hosili uchun yetishtiriladigan suv ko'p va kam talab qilinadigan ekinlarni taqqoslab iqtisodiy samaradorligini 2023-yil 1-yanvardagi harakatdagi bahosida taqqoslab ko'rganimizda suvni ko'p talab qilinadigan ekinlardan paxtaning 1 gektar maydonidan olingan hosildorlik 22,3s/ga, ya'ni hosil don 2,23 tonna, paxta o'rtacha sotish bahosi 1 kilogrammi 6200 so'm hisobidan hisoblandi. Jami kutiladigan doramad 13 million 861 ming so'mga va rentabellik darajasi 10,47 %ga teng bo'ldi.

Hozirgi vaqtda ekilayotgan va suv ko'p talab qilinadigan ekinlardan sholi ekinining biz hisob kitob yurgizgan ekishlik maydoni 1 gektar hisobidan, hosildorlik don uchun 25s/ga, yalpi hosil don uchun 2,5 tonna, jami kutiladigan doramad 20 million so'm bo'ldi va rentabellik darajasi 36,2 % ga teng bo'ldi.

Suvni ko'p talab qilinadigan ekinlardan kuzgi bug'doy ekishlik maydoni 1

gektar hisobidan, hosildorlik don uchun 38,8 s/ga, yalpi hosil don uchun jami kutiladigan daromad 19 million 920 ming so‘m bo‘ldi va rentabellik darajasi 43,4 %ga teng bo‘ldi.

Suvni kam talab qilinadigan ekinlardan jo‘xori ekish maydoni 1 gektar maydonda hisoblanganda, hosildorlik don uchun 46,3 s/ga, yalpi hosil don uchun 4,63 tonna, jo‘xorining don va qo‘shimcha hosili poya hosilini qo‘sha hisoblaganda jami kutiladigan daromad 28 million 973 ming so‘mga teng bo‘ldi hamda rentabellik darajasi 57,4%ga yetdi.



1- rasm. Ekinlar turlari bo'yicha sug'orish suvi sarfi

Suvni kam talab qiladigan ekinlardan beda ekish maydoni 1 gektar hisobidan, don hosili 1,5 s/ga va poya hosili 9,54 t/ga bo‘ldi jami kutiladigan daromad 18 million 948 ming so‘mga teng bo‘ldi va rentabellik darajasi 40,1 %ga teng bo‘ldi.

Suvni kam talab qilinadigan ekinlardan kunjutning ekish maydoni 1 gektar hisobidan, hosildorlik don uchun 13,3s/ga va qo‘shimcha hosili quruq poyasi 3 tonna bo‘lganida hozirgi baholarda sotilganda jami kutiladigan daromad 20 million 550 ming so‘mga teng bo‘lib, rentabellik darajasi 52,9 % ga teng bo‘ldi.

Bizning hisobimizda suvni kam talab qiladigan ekinlardan tariq ekinining ekish maydoni 1 gektar hisobidan hosildorlik don uchun 14,9 s/ga va poya massasi 10 tonnaga teng bo‘ldi. Jami kutiladigan daromad 9 million 960 ming so‘mga hamda rentabellik darajasi 37,8% ga teng bo‘ldi.

Qoraqalpog‘iston sharoitida mosh ekilganda 1 gektardan o‘rtacha 12,2 sentner don hosili va 2 tonna poya massasi olindi va 12 million 600 ming so‘m daromad olindi hamda rentabellik darajasi 57,7 %ga yetdi.

Respublikamizdagi suv tanqisligi sharoitida loviya ekilganda o‘rtacha gektaridan 9,9 sentner don hosili va 2 tonna quruq poya massasi olindi. Jami olingan hosil 12 million 280 ming so‘mga teng bo‘lib, rentabellik darajasi 53,6 % ga teng bo‘ldi. Hozirgi vaqtda Qoraqalpog‘istonda suv tanqisligi hukm surib turgan vaqtda ekinlardan hosil yetishtirish uchun zarur bo‘ladigan suv me'yorlarini hisoblaganimizda paxtaga 9,5 ming kub, bug‘doyga 7,7 ming kub, sholiga 24,6 ming kub va sabzavot poliz ekinlaridan pomidorga 12,5 ming kub zarur bo‘ladigan bo‘lsa, suvni kam talab qiladigan ekinlardan- jo‘xoriga 5,4 ming kub, bedaga 5,6 ming kub,

kunjutga 4,2 ming kub va tariqqa 3,6 ming kub ishlatilishini tadqiqot mobaynida aniqladik. Yoki boshqacha aytganda 1 gektar sholi o‘stirish uchun ishlatiladigan suv hisobidan 7 gektar tariq, yoki 6 gektar kunjut, yoki 4,4 gektar beda yoki 4,6 gektar jo‘xori o‘stirish mumkinligi hisoblab chiqildi.

Paxta ekishda barcha agrotexnikaviy tadbirlar tegishli tartibda, to‘liq o‘tkazilganda o‘rtacha olingan hosil 22,3 sentnerga teng bo‘ldi va jami olingan daromad 13 million 861 ming so‘m bo‘lib, paxtani undirish uchun har bir gektariga 9 ming 500 kub metr suv ishlatildi.

1- jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasi suv tanqisligi sharoitida ekinlar hosilini yetishtirishdan olingan natijalar.

(Hisob kitoblar va baholar 2023-yil 1-yanvar holatiga)


Tartib raqami	Ekin turi	Asosiy hosil (don., urug‘ yoki paxta), s/da	Sotishdan tushgan pul mablag‘i, ming so‘m	Sotishdan tushgan pul mablag‘i, ming so‘m	Jami sotishdan kelib tushgan foyda, ming so‘m	Barcha xarajatlar, Ming so‘m	Jumladan sug‘orish suvi sarfi m ³ va narxi, so‘m		Sof foyda, so‘m	Rentabellik, %
							1 gektarni sug‘orish suvi sarfi, ming m ³	Narxi, ming so‘m		
1	G‘o‘za	22,3	13 380	35	13861	12518	9,5	950	1343	10,7
2	Sholi	25,0	15000	5000	20000	14681	24,6	2 460	5319	36,2
3	Bug‘doy	38,8	15520	4400	19920	13891	7,7	770	6029	43,4
4	Kunjut	13,3	19950	600	20550	13436	4,2	420	7114	52,9
5	Toriq	14,9	5960	4000	9960	7214	3,6	360	2746	37,8
6	Mosh	12,2	12200	400	12600	7986	3,4	340	4614	57,7
7	Loviya	9,9	11880	400	12280	7993	3,4	340	4287	53,6
8	Beda	1,5	7500	11448	18948	13525	5,6	560	5423	40,1
9	Jo‘xori	46,3	16205	12768	28973	18396	5,4	540	10577	57,4
10	Makkajo‘xori	37,6	13160	11791	24951	18427	7,3	730	6524	35,4

Suvsizlik sharoitida suvni kam talab qiladigan jo‘xori o‘stirilganida bir gektardan 28 million 973 ming so‘m daromad olingan, ya‘ni paxta o‘stirishga nisbatan 15 million 112 ming so‘m, beda o‘stirishda 5 million 087 ming so‘m, kunjut o‘stirilganida 6 million 689 ming so‘m, makkajo‘xori o‘stirilganida 11 million 90 ming so‘m qo‘shimcha foyda olinishi ilmiy jihatdan dalillandi.

Mahsulotlar tannarxini ishlab chiqarish jarayonidagi foydalanilgan resurslar, xomashyo, materiallar, xizmatlar, yoqilg‘i, energiya, asosiy qo‘llanilgan vositalar, mehnat resurslari, shuningdek o‘sha mahsulotni ishlab chiqarish uchun amaldagi baholar, mahsulotni yetishtirishning boshqa qo‘shimcha omillari va sotish harakatlari kirdi, ya‘ni boshqacha aytganda ishlab chiqarish xarajatlariga qilingan barcha xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida ixtisoslashuvni takomillashtirishda yerlardan samarali foydalanish uchun hozirgi dasturiy ekilayotgan suvni ko‘p talab

qiladigan ekinlar bilan bir qatorda suvni kam talab qiladigan kunjut, tariq, mosh, loviya, jo‘xori, beda ekinlarini ekganimizda iqtisodiy tomondan foydali va 91 million 435 ming so‘m qo‘shimcha foyda olinishi dissertatsiya tadqiqotlari orqali dalillandi.




2-rasm. Ekinlar turlari bo'yicha 1 gektarga foydalaniladigan sug'orish suvi narxi, so'mda

Agar, oldingi dasturiy ekilib kelayotgan 4 turli ekinlar – paxta, bug‘doy, sholi va sabzavot-poliz ekinlarini ekishdan olinadigan jami daromad 32 million 890 ming so‘m daromad olinishi va ularga ishlatiladigan sug‘orish suvi jami 41,8 ming kub, jumladan 6,9 ming kub suv sho‘r yuvishga va 34,9 ming kub suv ekinlarni parvarishlash davridagi sug‘orishga ishlatilgan bo‘lsa, ushbu ekinlar bilan bir qatorda jo‘xori, kunjut, tariq va beda o‘stirishda 62 million 50 ming so‘m daromad olinishi va ularga ishlatiladigan sug‘orish suvi jami 18,8 ming kub, jumladan 4,6 ming kub suv sho‘r yuvishga va 14,2 ming kub suv ekinlarni parvarishlash davridagi sug‘orishga ishlatilishi matematik-statistik hisoblashlar natijasida aniqlandi. Demak, suv tanqis vaqtida suvni ko‘p talab qiladigan ekinlarni o‘stirishga nisbatan suvni kam talab qiladigan ekinlardan 23 ming kub suv tejali va suvni ko‘p talab qiladigan ekinlarni o‘stirishga nisbatan suvni kam talab qiladigan ekinlardan 29 million 160 ming so‘m ziyod daromad olinishini bizning tadqiqot ishimizdagi hisob kitoblar orqali dalillandi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida ixtisoslashuvni takomillashtirishda yerlardan samarali foydalanish uchun hozirgi dasturiy ekilayotgan suvni ko‘p talab qiladigan ekinlar bilan bir qatorda suvni kam talab qiladigan kunjut, tariq, mosh, loviya, jo‘xori, beda ekinlarini ekganimizda iqtisodiy tomondan foydali va 91 million 435 ming so‘m qo‘shimcha foyda olinishi dissertatsiya tadqiqotlari orqali dalillandi.

